

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAYEVA KAMOLA RAVSHANOVNA

**XX ASR INGLIZZABON VA O'ZBEK ADABIYOTIDA BOBUR OBRAZI
TALQINI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Xayrullayeva Kamola Ravshanovna

XX asr inglizabon va o'zbek adabiyotida Bobur obrazi talqini 3

Хайруллаева Камола Равшановна

Интерпретация образа Бабурa в англоязычной и узбекской литературах XX века..... 23

Khayrullayeva Kamola Ravshanovna

Interpretation of Babur's image in the XX century English speaking and Uzbek literature..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAYEVA KAMOLA RAVSHANOVNA

**XX ASR INGLIZZABON VA O'ZBEK ADABIYOTIDA BOBUR OBRAZI
TALQINI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/Fil2788 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Quvvatova Dilrabo Habibovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xajiyeva Feruza Melsovna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Karimov Bahodir Nurmetovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "06" iyul soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (413 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "24" iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil "24" iyun da 24-11 - raqamli restr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
koti, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida tarixiy shaxslar hayoti, ularning jahonshumul ishlari, hayotiga bag'ishlangan asarlarni qiyosiy aspektda o'rganish, o'zbek, rus, ingliz, fransuz va dunyoning boshqa tillarida xalqimiz o'tmishi, buyuk bobokalonlarimiz haqida yaratilgan roman, roman-trilogiya, roman-epopeya kabi janrlardagi asarlarni tizimlashtirish, ular borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Shu jihatdan muayyan tarixiy shaxs hayoti ifoda etilgan roman va qissalarni qiyosiy-tipologik jihatdan tekshirish, tarixiy shaxslar ruhiyatidagi murakkab holatlar, psixologik jarayonlar, qahramonlar ma'naviy olami yoritilgan muammolarni aniqlash yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqish hamda o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar muhim ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy shaxslar hayotini tarixiy haqiqat va badiiy to'qima nuqtayi nazaridan o'rganish, tarixiy shaxslar obrazi, tarixiy asarlar poetikasi, biografik yondashuv masalasi, biografik roman janri xususiyatlari, nomi dunyoga tanilgan ulug' insonlar hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Buyuk saltanat barpo qilish bilan birga o'zbek mumtoz adabiyotida Navoiydan keyingi buyuk siymo Z.M.Boburning hayot yo'li, Bobur haqida yaratilgan asarlarning janriy tarkibini aniqlash, qiyosiy tipologik aspektda tekshirish, Bobur hayoti bilan tarixiy haqiqatlarni oydinlashtirish, o'zbek, ingliz va hind adabiyotida XX asrda yaratilgan epik turga mansub asarlarni jahon adabiyoti kontekstida baholash, qiyosiy aspektda tekshirish, poetik an'alarini ilmiy o'rganish, janrlar takomilini, yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyatini, janriy tarkibi va uslubiy yo'nalishlarini chuqur anglash uchun mualliflar ijodini ular yashagan davr va muhit bilan bog'liqlikda o'rganish masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli sifatida tilimiz mavqeiga katta e'tibor qaratilayotgan hozirgi bir sharoitda "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim".¹ Bu esa milliy tilimizda yaratilgan badiiy, tarixiy, falsafiy, publisistik, ma'rifiy, tarjima asarlarni kengroq o'rganish sari undaydi. O'zbek, ingliz va hind adabiyotida XX asrda yaratilgan epik turga mansub asarlarni jahon adabiyoti kontekstida baholash, qiyosiy aspektda tekshirish yuzasidan maxsus tadqiqotlar olib borish zarurati yuzaga keldi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek adabiyotshunosligida Boburga bag'ishlangan asarlarni ilmiy baholash va umumlashtirish, uning o'z asarlarida ona yurtiga bo'lgan samimiy muhabbati, undan faxrlanish tuyg'usi, vatanparvarlik hissini betakror badiiyat orqali ifoda eta olgan davlat arbobining estetik psixologiyasini, ijodkorlik mahoratini u yashagan davr ijtimoiy-tabiiy voqeliklari

¹Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli.Prezident Shavkat Mirziyoevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi / Xalq so'zi. – Toshkent, 2019, 22 oktabr. – № 218 (7448). – B.1.

bilan uzviylikda yoritib berish milliy adabiyotshunosligimizni nazariy qarashlar, yechimlar bilan boyitishga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida tarixiy shaxslar hayotini o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar ikki yo‘nalishda amalga oshirilgan. Badiiy adabiyotda tarixiy shaxs hayoti tasvir etilgan asarlar tadqiqi. S.Rouliy, S.Fazzi, J.Thorndik, N.Mambrol, V.Rabbani, T.G.Serdyuk, G.Shpayer, O.B.Zolotuxina, I.S.Boldonova, T.E.Sanjiyeva, A.S.Novolodskiy, I.S.Volkov² kabi ingliz va rus olimlarining ishlarida tarixiy shaxslar obrazi, xususan Chingizxon, Ivan Grozniy singari hukmdorlar obrazlari yaratilgan asarlarga munosabat bildirilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida D.Q.Naimova, U.S.Sultonova, F.M.Xajiyeva, F.I.Ikromxonova, O.I.Adizova, B.B.To‘rayeva³ kabilarning ishlarida bu masalaga daxl qilingan.

²Steven Rowley. Writing fiction about fact: Using historical figures as characters. – 2019, April 18. Cindy Fazzi. Writing fiction about a historical figure // Writing in the Modern Age, 2019. John Thorndike. 5 considerations for writing about historical figures in fiction // Writer’s digest, 2018. Nasrullah Mambrol. Historical representations in Indian historical novels // Literary Theory and Criticism, July 2018. Waheed Rabbani. Indian Historical Novels: The Origin and Evolution of the Historical Novel Written by Indians in English // Historical novels review, May 2019. Татьяна Геннадьевна Сердюк. Исторический тип и исторический образ, монография. АлтГУ, 2016. Шпайер Г. Литературный портрет Литературная энциклопедия. – М.: ОГИЗ. РСФСР, Гос. ин-т. “Сов. Энцикл.”, 1935. Золотухина О.Б. Психологизм в литературе, пособие. ГрГУ, 2009. ISBN 978-985-515-157-0. Болдонова И.С., Санжиева Т.Е. Герменевтический историзм: Художественный образ Чингисхана в современной бурятской литературе как фактор развития национального самосознания // Вестник Бурятского государственного университета, 2012. Новолодский А.С. Образ И.Грозного как защитника Руси и православного христианства в московском летописании// Преподаватель XXI века, 2019. – С.253. Волков И.С. Образ Ивана Грозного в творчестве И.С.Тургенева 1870-х гг.: повесть “Степной Король Лир” // Вестник Томского государственного университета. 2017. № 419. – С. 23.

³Наимова Д.Қ. Образ Амира Темура в зарубежной литературе // Наука, образование и культура, 2020. – С. 42. Sultonova U.S. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridagi qahramon obrazlar tavsifi // Oriental Renaissance, February, 2022. Ф.М.Хажиева. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов асарлари кўёсида). Филол.фанл.бўйича фалс.докт. диссертацияси. – Toshkent, 2018. – 153 б. F.I.Ikromxonova. O‘zbek va inglizxabon nasrda tarixiy asar poetikasi. Filol.fanl.dokt. dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 256 б. Адизова О.И. Адабиётшunosликда биографик метод ва ундан Азиз Қаюмовнинг фойдаланиш маҳорати.

Zahiriddin Bobur faoliyati va unga bag'ishlangan asarlar o'rganilgan tadqiqotlar. H.Qudratullayev, E.Ochilov, S.Jalilov, H.Hasanov, Z.Anvar, G.Zoirova, D.Hoshimova, I.Kamolov ishlarida Boburga bag'ishlagan roman va qissalar tahlilga tortilgan⁴. Ta'kidlash kerakki, bu yo'nalishdagi eng yangi tadqiqotlardan biri I.Kamolovning "Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv" nomli dissertatsiyasidir. Unda, avvalo, adabiyotshunoslikda biografik yondashuv masalasi yoritilgan. Shu asosda Bobur haqida ingliz adabiyotida yaratilgan H.Lambning "Bobur – yo'lbars", Frits Vyurtlening "Andijon shahzodasi", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", Xayriddin Sultonovning "Saodat sohili" singari badiiy asarlar tarixiy manbalar bilan biografik usulda qiyosan tekshirilgan. Unda: "Yozuvchining hayot yo'li hamda u tomonidan yaratilgan badiiy obrazlar boshidan kechirganlari o'zaro juftlikda, birini ikkinchisidan ajratmagan holda, mantiqiy bog'liqlikda, ijodkor va ijod mahsuli sintezlanib tekshirilgan, biografik metod talablaridan kelib chiqib"⁵ tahlil etilgan.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek va jahon adabiyotshunoslarining tadqiqotlari e'tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi. Tadqiqotimizda boshqa ilmiy ishlardan farqli o'laroq, XX asr inglizabon va o'zbek nasrida yaratilgan Bobur obrazi qiyosiy-tipologik aspektida tadqiq qilindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi 2019-2024 yillarga mo'ljallangan "Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asrda inglizabon va o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda Bobur obrazi tasviri bilan bog'liq mushtarak va o'ziga xos jihatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asr inglizabon va o'zbek adabiyotshunosligida tarixiy shaxs va Bobur obrazi o'rganilgan tadqiqotlarning nazariy asoslarini ochib berish;

Филол.фанл.бўйича фалс.докт. дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 52 б. Тўраева Б.Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси: Филол. фан. бўйича фалс. доктори диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 157 б.

⁴Qudratullayev H. Boburning adabiy-estetik olami. – Toshkent, Ma'naviyat, 2018. – 271 b.; Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011. – 431 b.; Bobur armoni. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2009. – 383 b.; Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 134 b.; Jalilov S. Bobur va Yuliy Sezar: (Qiyosiy hayotnoma). Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001; Hasanov H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. – Toshkent: O'zbekiston. 1983. – 62 b.; Zahid Anvar. Babur's contributions to understanding and development of linkages between Central and South Asia // J.R.S.P., Vol.51 No.1, January-June, 2014. – B. 219-220.; Zoirova G. Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi tarixining xorijiy adabiyotlarda yoritilishi // Youth, Science, Education: Topical issues, achievements and innovations, 2022 Prague. Khoshimova D.M. Scientific terms and comparative style in "Baburname" by Z.M.Babur // International Scientific Journal Theoretical and Applied science. ISSN: 2409-0085, 2015. – P. 55-57. Kamolov I.N. Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv. Filol.fanl.bo'yicha fals.dokt. dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022.

⁵Kamolov I.N. Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv. Filol.fanl.bo'yicha fals.dokt. dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022. – B. 15.

XX asr inglizzabon va o'zbek nasrida Bobur haqida yaratilgan asarlarning janriy tarkibini aniqlash;

Flora Anna Stilning "Sayohatchi Qirol" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlarda shoh-shoir Bobur talqinida mushtaraklik va tafovutlarni, Boburning ulug' sarkarda hamda jamoat arbobi sifatidagi siymosi talqiniga xos jihatlarni qiyosiy tekshirish;

Muni La'ning "Bobur: hayot va zamon", Stefan Meredit Edwardsning "Bobur: yozuvchi va jangchi" va Xayriddin Sulstonovning "Boburiynoma" asarlarida Bobur xarakterining badiiy tadrijini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida XX asrda yaratilgan Flora Anna Stilning "Sayohatchi Qirol", Muni La'ning "Bobur: hayot va zamon", Stefan Meredit Edwardsning "Bobur: yozuvchi va jangchi", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Xayriddin Sulstonovning "Boburiynoma" asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XX asr inglizzabon va o'zbek nasrida Bobur obrazi talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, germeneytik, analitik, psixologik va kompleks tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr inglizzabon va o'zbek nasrida tarixiy shaxslar obrazining badiiy gavdalantirilishi muayyan millatning etnik, madaniy va ijtimoiy normalarini mujassam etish tamoyilining yetakchiligida, tarixiy davr voqealari, faktlar, uzoq tarixda turli darajada nom qoldirgan podshohlar, sarkardalarning murakkab hayot yo'li tarixiylik tamoyili orqali shartlanishi asoslangan;

Bobur haqida yaratilgan asarlarning janriy jihatdan tarixiy-biografik roman (P.Qodirov "Yulduzli tunlar"), roman-trilogiya (F.A.Stil "Sayohatchi qirol"), biografiya (S.M.Edwards "Bobur: yozuvchi va jangchi", M.La'l "Bobur: hayot va zamon", S.F.Deyl "Sakkiz jannat bog'lari", "Bobur: temuriy shahzoda va mo'g'ul imperatori"), roman-epopeya (A.Rutherford "Mo'g'ul imperiyasi"), ma'rifiy roman (X.Sulstonov "Boburiynoma") kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi aniqlangan;

Flora Anna Stilning "Sayohatchi Qirol" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlarida Bobur portreti, xarakteri, syujetdagi mutanosiblik va tafovutlar Sharq hamda G'arb dunyoqarashi nuqtayi nazaridan dinamik va statik portret nazariyasi, psixologik va psixofiziologik tahlil tamoyillari asosida dalillangan;

Stefan Meredit Edwards o'z asarlarida asarlarida Boburning jasorat va mardlikni turkiylardan (Amir Temur), cheksiz energiya va kuch-qudratni esa mo'g'ullardan (Chingizxon) meros qilib olganligini, dunyoviy ilmlarni mustahkam egallaganligi hamda do'stparvar va xalqsevarligini; Muni La'l esa uning yetakchilik qobiliyati, harbiy sohada tengsizligi, bunyodkorligi, taraqqiyparvarligi, saxovatpehaligi, rostgo'yiligini hayotiy tasvirlarda yoritganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Bobur shaxsi, uning insoniy qiyofasi, ruhiy olami, farzand sifatidagi his-kechinma va iztiroblari, jang-u jadallar, g'alaba va mag'lubiyat damlaridagi holati, chin vatanparvar siymosi, shoirona qalb egasi sifatidagi qiyofasi ochib berilgan;

tarixiylik prinsipi asosida Boburning Shoh Ismoil va Ibrohim Lodiy bilan munosabatlari, ulug‘ sarkarda xarakteriga xos sadoqat va mardlik fazilatlari, fidoyi ota sifatidagi ma’naviy jasorati tarix va badiiyat uyg‘unligida realistlik aks ettirilganligi yoritilgan;

Boburning insoniy qiyofasi, farzand sifatidagi his-kechinma va iztiroblari, xarakteridagi oqko‘ngillik, mehribonlik fazilati, adolatsizlikka munosabati (F.A.Stil), odamiyligi, shoirona musaffo qalbi, janglarda tengsizligi, jasurligi, fidoyiligi, adolatpeshaligi, do‘stparvar va xalqsevarligi (P.Qodirov) singari fazilatlari badiiy lavhalar orqali dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo‘yilishi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, biografik, germevistik, analitik, psixologik va kompleks tahlil metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslik sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, uning asosiy tahliliy xulosalaridan tarixiy shaxs obrazini yaratish, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi singari jihatlarni yoritishda, qiyosiy adabiyotshunoslik rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy, o‘rta maxsus ta’lim tizimida, umumta’lim maktablarida hozirgi adabiy jarayon, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha maxsus kurslar o‘tishda, ingliz va o‘zbek adabiyoti, sharqshunoslik fanlaridan ma’ruzalar o‘qishda, dars mashg‘ulotlari olib borishda, shuningdek, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanlaridan o‘quv qo‘llanma, majmua va antologiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr inglizabon va o‘zbek adabiyotida Bobur obrazi talqini bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

XX asr inglizabon va o‘zbek nasrida tarixiy shaxslar obrazining badiiy gavdalantirilishi muayyan millatning etnik, madaniy va ijtimoiy normalarini mujassam etish tamoyilining yetakchiligida, tarixiy davr voqealari, faktlar, uzoq tarixda turli darajada nom qoldirgan podshohlar, sarkardalarning murakkab hayot yo‘li tarixiylik tamoyili orqali shartlanishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 22-fevraldagi 01/4-359-sonli ma'lumotnomasi). Natijada xorij va o‘zbek adabiyotshunosligida Bobur haqidagi yangi ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishga erishilgan.

Flora Anna Stilning “Sayohatchi Qirol” va P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarida Bobur portreti, xarakteri, syujetdagi mutanosiblik va tafovutlar Sharq hamda G‘arb dunyoqarashi nuqtayi nazaridan dinamik va statik portret nazariyasi,

psixologik va psixofiziologik tahlil tamoyillari asosida ochib berilganligiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 6-fevraldagi №216/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada XX asr ingliz va o‘zbek adabiyotida yaratilgan Bobur obrazining tipologik xususiyatlarini aniqlash O‘zbekistonda ta’lim jarayonida “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiyotshunoslikka kirish” kabi fanlarni o‘qitishda ta’lim sifatini oshirishga muvaffaq bo‘lingan.

Bobur haqida yaratilgan asarlarning janriy jihatdan tarixiy-biografik roman (P.Qodirov “Yulduzli tunlar”), roman-trilogiya (F.A.Stil “Sayohatchi qirol”), biografiya (S.M.Edwards “Bobur: yozuvchi va jangchi”, M.Lal “Bobur: hayot va zamon”, S.F.Deyl “Sakkiz jannat bog‘lari”, “Bobur: temuriy shahzoda va mo‘g‘ul imperatori”), roman-epopeya (A.Rutherford “Mo‘g‘ul imperiyasi”), ma'rifiy roman (X.Sultonov “Boburiynoma”) kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” kabi ko‘rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 3-fevraldagi №02-02-32-son ma’lumotnomasi). Natijada yangi fikr-qarashlar teletomoshabinlarning o‘zbek, ingliz va hind adiblarining Bobur obrazi yaratilgan asarlari bilan yaqindan tanishishlariga imkon yaratgan, adabiy ko‘rsatuvlar ilmiyligi va ommabopligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qimmatini yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e'lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**XX asr jahon adabiyotida Bobur shaxsiga munosabat masalasi**” deb nomlangan va ikki faslni o‘z ichiga oladi. Dastlabki

fasl *“Ingliz, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida tarixiy shaxslar va Bobur obrazi o‘rganilgan tadqiqotlarning nazariy asoslari”* tadqiqiga bag‘ishlangan. Bunda avvalo, badiiy adabiyotda tarixiy shaxs obrazining talqini, xususan Bobur obrazi yaratilgan asarlar haqidagi tadqiqotlar nazardan o‘tkazilgan. Binobarin, tarixiy shaxslar obrazining adabiyotda badiiy gavdalanirishi va ilmiy talqini masalasi adabiyotshunoslikda hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Shu o‘rinda badiiy obraz yaratishda yozuvchining majburiyatlari xususida T.G.Serdyuk fikrlari nihoyatda muhim: *“Yozuvchi tarixiy manbadagi voqealarga o‘z shaxsiy qarashlari va hissiyotlarini ifodalay olmaydi. Tarixda ham, adabiyotda ham tipik obraz yaratishda muallifning fantaziyasi katta rol o‘ynaydi. Tarixni “xayoliy” yaratilgan voqealardan xoli holda ko‘rish ham imkonsiz”*⁶. Shuningdek, ingliz adibi bir necha tarixiy-biografik romanlar muallifi Sindi Fazzi II jahon urushi davrida yetakchi jangchilardan biri haqida *“My MacArthur”* romanini yozib quyidagicha xulosalarga keladi: *“Tarixiy shaxslar adabiyotshunoslikda qayta gavdalanirilsa, kitobxonlarni ko‘proq jalb qila oladi, chunki ular qachondir ushbu shaxsning qahramonliklari yohud ibratli ishlari xususida eshitgan yoki filmlar ko‘rgan bo‘lishi mumkin”*⁷.

F.Ikromxonova *“O‘zbek va inglizabon nasrda tarixiy asar poetikasi”* nomli dissertatsiyalarida zamonaviy tarixiy-badiiy asarlar, xususan, tarixiy roman ildizida badiiy adabiyot va tarixnavislik sohalarining vakillari yaratgan *“memuar”*, *“esdalik”*, *“xotira”*, *“badiylashgan tarix”*, *“kundalik”* kabi umumiy janrlarning alohida o‘rni borligini⁸ qayd etganlar. F.Xajiyevaning *“Biografik roman janri xususiyatlari”* nomli dissertatsiyalarida o‘zbek hamda Yevropa adabiyotida biografik romanlar genezisi va taraqqiyoti, xorij adabiyotshunosligida biografik romanga oid qarashlar, ularda tarixiy-biografik haqiqat hamda badiiy psixologizmlar haqida fikr yuritilgan.⁹

Rus xalqi tarixida munosib o‘rin tutgan hukmdor Ivan Grozniy obrazi ham badiiy adabiyotda gavdalanirilgan. A.S.Novolodskiy o‘z maqolasida Grozniy obrazining rus adabiyotshunosligida yoritilishi haqida yozadi hamda Ivan Grozniyning rus xalqi oldidagi xizmatlarini qayd etadi. Rus adabiyotshunosligida badiiy adabiyotda Chingizxon, Ivan Grozniy, Yemelyan Pugachyov, Amir Temur obrazlari yaratilgan asarlar maxsus o‘rganilgan. Jumladan, I.S.Boldonova va T.E.Sanjiyevalar tarixiylik masalasiga to‘xtalib, shunday yozadilar: *“Tarixiylikni insoniyat mavjudligining muhim belgisi sifatida ko‘rib chiqish kerak. Inson o‘zining tarixiy sharoitlariga oddiygina “berilgan” emas, balki bu shartlarga ma‘lum bir tarzda aloqador bo‘lgan darajada tarixan mavjud bo‘ladi”*¹⁰. Demak, tarixiylik faqat tugallangan voqea-hodisani emas, balki bugun ham davom

⁶Татьяна Геннадьевна Сердюк. Исторический тип и исторический образ, монография. АлтГУ, 2016.

⁷Cindy Fazzi. Writing fiction about a historical figure // Writing in the Modern Age, 2019.

⁸Икромхонова Ф.И. Ўзбек ва инглизабон насрда тарихий асар поэтикаси. Филол.фанл.докт. диссертацияси. – Тошкент, 2021. – Б. 67.

⁹Хажиева Ф.М. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов асарлари кўсиди). Филол.фанл.бўйича фалс.докт. диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б. 45.

¹⁰Болдонова И.С., Санжиева Т.Е. Герменевтический историзм: Художественный образ Чингисхана в современной бурятской литературе как фактор развития национального самосознания // Вестник Бурятского государственного университета, 2012. – С.1.

etayotgan hayotni ifodalab keladi. D.M.Hoshimova “Boburnoma” avtobiografik asarida qo’llanilgan ilmiy atamalar, qiyosiy tasvirlar keltirilgan parchalar orqali asarda qo’llanilgan islomiy atamalarni aniqladilar. Tadqiqotchi “Boburnoma” tilini o’rganish orqali Bobur obraziga xos xususiyatlarni ham yoritgan.¹¹ Bobur haqidagi asarlarni qiyosiy o’rgangan tadqiqotchilardan biri Ixtiyor Kamolov ingliz va o’zbek adiblari tomonidan yozilgan asarlarni tarixiylik nuqtayi nazaridan qiyosiy o’rgangan: “G’arbda, ayniqsa, inglizzabon sharqshunoslikda boburshunoslik ertaroq shakllangan. Bu Hindistonning Angliya tomonidan bosib olinishi bilan bog’liq”¹².

Bobning “*XX asr inglizzabon va o’zbek nasrida Bobur haqida yaratilgan asarlarning janriy tarkibi*” deb nomlangan ikkinchi faslida ingliz, inglizzabon hind va o’zbek adabiyotida Boburga bag’ishlab yozilgan asarlar haqida fikr yuritilgan. Jahon miqyosida shuhratga ega bo’lgan tarixiy siymo Bobur haqidagi dastlabki asar Flora Anna Stilning “Sayohatchi qirol” roman-trilogiyasidir. Ushbu roman 1912-yilda chop etilgan. Adib Bobur haqida yozgan asarini uch bo’limga bo’ladi. Shu jihatdan shoh-shoirning hayot yo’lini davrlarga bo’lish orqali inson umrini ramziy ma’noda bir daraxtning umri bilan qiyoslaydi va roman qismlarini quyidagicha nomlaydi: 1-kitob – “Seed time” – “Urug’ davri”; 2-kitob – “Blossom Time” – “Gullagan davr” ya’ni 1-kitobdagi urug’ning unib chiqib, kurtaklari ochilgan payti nazarda tutilgan; 3-kitob – “Fruit time” – “Meva davri”, bunda daraxtning hosil bergan davri inobatga olingan. Kitoblarga shunday nomlar berilishida ham o’ziga xos majoziy ma’no bor. Yozuvchi Boburni bir ulkan daraxtga o’xshatadi. Zahiriddin Boburning hayot yo’li nihoyatda sinovli, tahlikali kechgan: “Bu kitobning qahramoni o’zida shunchalik ko’p shaxslarga da’vo qilgan bo’lishi mumkin edi, chunki biz “Buyuk Mo’g’ullar” deb noto’g’ri nomlagan sulolaning birinchisi bo’lgan Hindiston hukmdori Bobur deb atalgan Zahiriddin Muhammad bir vaqtning o’zida shoir, rassom, askar, sportchi, musiqachi, va qirol bo’lgan”.¹³ Mazkur yo’nalishdagi yana bir muhim qadam ingliz yozuvchisi Stefan Meredit Edvards nomi bilan bog’liq. Ingliz yozuvchisi o’zining “Bobur: yozuvchi va jangchi” (“Babur: diarist and despot”) asarini yaratishdan oldin Bobur hayot yo’li ustida ko’pgina izlanishlar olib boradi. Bobur haqida asar yozgan yana bir ingliz yozuvchisi va tarixchisi Stefan Frederik Deyldir. U ham boy tariximiz va buyuk ajdodimiz qoldirgan adabiy meros, sarkardalik, hukmdorlik faoliyatiga qiziqdi va o’zining “The Garden of the Eight Paradises (Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India)”, (“Sakkiz jannat bog’lari (Bobur hamda Markaziy Osiyo, Afg’oniston va Hindiston imperiyalari madaniyati)”) va bundan tashqari “Babur: Timurid prince and Mughal Emperor” (“Bobur: temuriy shahzoda va mo’g’ul imperatori”) nomli ikki buyuk asarni yaratadi. Adib asar uchun qimmatli ma’lumotlar bera olgan manbalar xususida shunday yozadi: “Bu biografiya Boburning nodir avtobiografiyasining tarjimalari va boshqa ilmiy

¹¹Khoshimova D.M. Scientific terms and comparative style in “Baburname” by Z.M.Babur // International Scientific Journal Theoretical and Applied science. ISSN: 2409-0085, 2015. – P. 55-57.

¹²Kamolov I.N. Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv. Filol.fanl.bo’yicha fals.dokt. dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022.

¹³Steel F.A. King-Errant. – New York: Frederick A. Stokes Company, 1912. – P. 3.

nazariyalar bo‘limganda mavjud bo‘lmasdi. Ulardan eng muhimi avtobiografiyaning eski turkiy tildan ingliz tiliga A.S.Beverij tomonidan amalga oshirilgan tarjimasidir. O‘zbekistonga qilgan sayohatim davomida o‘zbek do‘stlarim va hamkasblarim meni yaxshi kutib olishdi va o‘z yordamlarini ayashmadi. Jumladan, Samarqand davlat universiteti professori Akram Shermatov, Bobur xalqaro fondi rahbari Zokirjon Mashrabov, Andijon davlat universiteti professori Sayfiddin Jalilov kabilardan minnatdorman”.¹⁴ Shu yo‘nalishdagi yana bir asar inglizabon hind yozuvchisi Muni La'l qalamiga mansub biografiya “Bobur: hayot va zamon” (1977)dir. Mashhur hind tarixchisi va siyosatchisi Javoharla'l Neru ham Hindiston tarixiga bag‘ishlab yozgan “The Discovery of India” (“Hindistonning kashf etilishi”) tarixiy asarida Bobur Hind diyorida amalga oshirgan madaniy o‘zgarishlar haqida gapirib, “Ular ushbu yurtga zodagonlarga xos yashash tarzini olib kirishgan”¹⁵ deb yozadi. S.M.Jaffar esa asosan, boburiylar davlatchiligi davridagi Hindiston tarixini o‘rganishga e’tibor qaratadi va “The Mughal Empire from Babar to Aurangzeb” (“Boburdan Avrangzebgacha bo‘lgan davrda Mo‘g‘ul Imperiyasi”) tarixiy asarini yaratdi hamda Boburning Hindiston tarixida tutgan o‘rni xususida shunday yozadi: “Hindiston tarixidagi eng ajoyib davr Boburning kirib kelishi bilan boshlandi. Bobur Ibrohim Lodiyni mag‘lub etgan Panipatdagi birinchi jang Hindiston tarixida yangi erani boshlab berdi. Yangi g‘oyalar, foydali fikrlarga boy davr hisoblangan Mo‘g‘ul davlatchiligi san‘atning gullab-yashnashi hamda adabiyotning rivoji uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratib bera oldi”.¹⁶

O‘zbek adabiyotida Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani alohida ahamiyatga ega. Amir Temur va Bobur singari tarixiy shaxslarga munosabat salbiy bo‘lgan davrda yozuvchining Bobur siymosini yaratishi ma’naviy jasorat edi. Sho‘ro hukumati davrida Amir Temur haqida o‘z asarida ma’lumotlar keltirish butunlay taqiqlangan. Shu sababdan P.Qodirov Bobur shajarasi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan asar qismlarini tushirib qoldirishga majbur bo‘ladi. “Boburiynoma” ma’rifiy romani (1997) Xayriddin Sultonovning bir necha tarixchilar bilan Bobur bosib o‘tgan yo‘llar, hukmronlik qilgan yurtlar bo‘ylab qilingan sayohat, ekspeditsiya taassurotlari asosida yozilgan. Shunday qilib, Bobur haqida ingliz, inglizabon hind va o‘zbek adabiyotida yaratilgan asarlarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1. *Tarixiy-biografik roman* (P.Qodirov “Yulduzli tunlar” asari). 2. *Roman-trilogiya* (Flora Anna Stilning “Sayohatchi qirol” asari). 3. *Biografiya* (Stefan Meredit Edwardsning “Bobur: yozuvchi va jangchi”, inglizabon hind yozuvchisi Muni La'ning “Bobur: hayot va zamon”, Farzana Munning “Bobur: Hindistondagi birinchi mo‘g‘ul”, Stefan Frederik Deylning “Sakkiz jannat bog‘lari”, “Bobur: temuriy shahzoda va mo‘g‘ul imperatori” asarlari) 4. *Badiiy-xronik roman* (Javoharla'l Neruning “Hindistonning kashf etilishi”, S.M.Jaffarning “Boburdan Avrangzebgacha bo‘lgan davrda Mo‘g‘ul Imperiyasi” asarlari) 5. *Roman-epopeya* (Aleks Rutherford qalamiga mansub

¹⁴Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises. – The Netherlands: Brill’s Inner Asian Library, 2004. – P.8.

¹⁵Nehru J. The discovery of India. – New York: Oxford University Press, 1994. – P.238.

¹⁶Jaffar S.M. The Mughal Empire from Babur to Aurangzeb. – Peshawar: Kissa Khani, 1936. – P.9.

“Mo‘g‘ul imperiyasi” asari) 6. *Ma‘rifiy roman* (Xayriddin Sultonovning “Boburnoma” asari)

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**XX asr inglizzabon va o‘zbek nasrida shoh- shoir Bobur obrazi talqini**” deb nomlangan va ikki faslni o‘z ichiga oladi. Dastlabki fasl “*Flora Anna Stilning “Sayohatchi Qirol” va P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarida shoh-shoir Bobur talqinida mushtaraklik va tafovutlar*” deb nomlanadi hamda ingliz va o‘zbek adabiyotining ikki buyuk romani o‘zaro qiyoslanadi. Ikki asarni qiyoslash asosida Bobur siymosini yaratishdagi mushtaraklik, tafovutlarni aniqlashga harakat qilamiz. Bu jihatdan *Bobur portretini yaratishdagi o‘xshashlik va farqlar, asarlar syujetidagi o‘xshashlik va farqlar, xarakter tasviridagi mutanosiblik va tafovutlar tarzida tasniflanib, qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan. Avvalo, ikki asarda Boburning bolalik, o‘smirlik, yoshlik davrlari va umrining so‘nggi yillari tasvir etilgan. Adiblar shoh-shoirning shu yillardagi tashqi qiyofasini ham yaratganlar. F.A.Stil Boburni “olti fut keladigan oyoq-qo‘llarida yigitlik belgilari” namoyon bo‘lganligini ta’kidlaydi. Bu P.Qodirovdagi “Bobur Mirzo otdan tushganda bo‘yi o‘sib, katta yigitlarga tenglashib qolgani bilindi” ifodasida ko‘rish mumkin. Har ikkalasida ham Boburning ancha erta ulg‘ayganligiga aniq ishoralar mavjud. Ikki portretidagi o‘ziga xoslik shundaki, F.A.Stil G‘arb xususiyatlarini Boburga singdirmoqchi bo‘ladi: bu uning “ancho ozg‘in bola edi; g‘arbiyliklarga xos ko‘zlarida” ifodasida kuzatiladi. Aslida Boburda sharqliklarga xos ko‘rinish ko‘zga tashlanib turadi. Yohud uning ozg‘inligi ham tarixiy manbalarda, “Yulduzli tunlar”da ta’kidlanmagan. Biroq xipcha qomat, uncha to‘lishmagan yelkalar esa aynan Bobur tasviriga mosdir.*

Bobur Mirzo kasallik va kuchli og‘riqlardan azob chekkandagi holati ikki asarda bir-biriga uyg‘un ifoda etilgan. Chunki F.Stil ham, P.Qodirov ham “Boburnoma”ga tayangan. Qolaversa, Boburning kasallikni yengish uchun kurashgan lahzalari ta’sirchan ifoda etilgan. Boburning o‘smirlik davri portretida ham mutanosibliklar bor. F.Stil Boburni “bo‘ylari baland, baquvvat” desa, P.Qodirov uni “*devqomat, pahlavon yigit*” tarzida tasvirlaydi. Yana e’tiborli tarafi shundaki, F.A.Stil ingliz adibasi bo‘lishiga qaramasdan, nafaqat uning tarixiy jarayonlarda tutgan o‘rni, balki o‘lmas asarlari ustida ham izlanishlar olib borgan. Bobur qalamiga mansub ruboiy “Sayohatchi Qirol” romanida quyidagicha keltiriladi:

*My fever grows each day,
My slumber fades away,
My pains go on increasing-
My patience is decreasing.*¹⁷

Samarqandni ikkinchi marotaba ham qo‘ldan boy berish voqealari F.Stil qalamida real ifodalangan. Adiba uning barcha narsasidan ayrilib tushkunlikka tushgan onlarida Xitoyni ko‘rish istagi haqida gapiradiki, bu Bobur avtobiografik asari “Boburnoma”da ham aks etgan: “*Xito (Uyg‘uriston)ga bortoqni niyat qilib bosh olib ketish harakatiga tushdim. Kichiklikdan beri Xito taraflarga havasim bor*

¹⁷Steel F.A. King-Errant. – New York: Frederick A. Stokes Company, 1912. – P. 168.

edi”¹⁸. P.Qodirov ham milliy yozuvchi sifatida bu tarixiy jarayonga real yondashgan. Shu bilan birga Bobur xarakteriga xos sadoqat va mardlik xususiyatlari ifodasi F.A.Stilda *“Bobur o‘z va’dalariga har doimgidek sodiq qolib...”* hamda P.Qodirovda *“Bobur o‘zining shoh Ismoil bilan tuzgan ittifoqiga sodiq ekanini ularga qayta-qayta uqtirib”* tasvirlarida ko‘zga tashlanadi. Zahiriddin Bobur Ibrohim Lodiy bilan janglarda g‘alaba qozongach, dushman yetakchisining jasadi kurash maydonidan topiladi. F.Stil tasviriga ko‘ra, Boburning sodiq navkarlari Ibrohim Lodiyning kallasini tanasidan judo qiladi. Halok bo‘lgan podshohning jasadi tahqirlanmasdan, hurmat-izzat bilan dafn qilinishini istagan Boburning *“Qul! Nega bunday qilding? Bu bechora podshoh axir Dehli Sultoni bo‘lgan”* degan so‘zlari uning shaxsiy sifatlarini namoyon etadi. “Yulduzli tunlar”dagi tasvirlar ham shunga muvofiq keladi.

Bobur hayotining so‘nggi yillari lavhalari, uning o‘g‘liga otalarcha nasihatlari ham ta’sirchan ifoda etilgan. Flora Anna Stilda: *“O‘g‘lim, men o‘z podshohligimni, xalqimni va barcha qarindosh-urug‘imni senga topshiraman. Ularga sadoqatli bo‘l”*¹⁹. Ayni shu voqelik “Yulduzli tunlar”da quyidagicha aks etgan: *“Bobur Mirzo: “Temuriylarning ko‘pchiligi.... Fidoyilikni unutib.... Yo‘q bo‘lib ketdi. Mana amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib o‘zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo‘lishga undab keldi. Sen ham endi inilaring-u... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o‘rgatgin”*²⁰. Har ikki lavhada ham Boburning o‘g‘li Humoyunga otalarcha o‘g‘itlari, uni xalqiga, qon-qarindoshlariga nisbatan sadoqatli bo‘lishga undovchi so‘zlari aks etgan.

Bobning ikkinchi faslida *“Ingliz, hind va o‘zbek romanlarida Bobur xarakterining badiiy tadriji”* yoritilgan. Binobarin, Muni La'l Boburning “karim uttarafayn” ekanligini, ota tomondan Amir Temurning beshinchi, ona tomondan Chingizxonning o‘n to‘rtinchi avlodiga mansubligini qayd etadi. Shu o‘rinda Boburning ikkala ajdodidan ham “g‘olibiyat ruhini meros qilib olgan”ligini ham ta’kidlashni unutmaydi. Edvards esa Boburning jasorat va mardlikni turklardan (Amir Temur), cheksiz energiya va kuch-qudratni esa mo‘g‘ullardan (Chingizxon) meros qilib olganligiga e’tibor qaratadi. Ma'lumki, Boburda harbiy mahorat qirralari bolaligidan shakllanib borgan. Binobarin, Boburning ovga qiziqqanligi, kamondan o‘q otishda mohir bo‘lganligi bilan bog‘liq jihatlar Edvards va Muni La'l tasvirlarida uyg‘unlik kasb etgan. Tafovutli jihati shundaki, Edvards Boburning jismoniy jihatdan baquvvat va chaqqon bo‘lganligini, suzish sevimli mashg‘uloti ekanligini alohida ta’kidlaydi. Muni La'l esa Farg‘ona shohi bo‘lishidan oldin ham yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lganligiga, hukmronligining ilk qiyin davrida harbiy sohada tengsiz ekanligiga e’tiborni qaratadi.

Bobur dunyoviy ilm-fanga ham juda qiziqqan. “Boburnoma”dagi qomusiy kuzatishlar buni tasdiqlab turadi. M.Edvards va X.Sultonov tasvirlariga ko‘ra Bobur G‘azna kentlaridan biridagi mozorda ilohiy kalom aytilishi bilan qabrning tebranishi haqidagi mish-mishlardan xabar topadi. Buni ilmiy o‘rganish orqali Bobur mujovirlarning qabr tepasiga bir halqa yasaganlarini, har zamonda

¹⁸Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 110.

¹⁹Steel F.A. King-Errant. – New York: Frederick A. Stokes Company, 1912. – P. 186.

²⁰Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 538.

sezdirmay halqani qimirlatishlari natijasida qabrning qimirlashini aniqlaydi. Bu esa Bobur qomusiy faoliyatiga xos yana bir muhim qirrani aniqlashga imkon beradi. Ayni shu voqelik “Boburnoma”da ham o‘z aksini topgan. Boburning harbiy intizomi, sarkardalik faoliyati adiblar nazaridan chetda qolmagan. Edvards ikki jihatga e’tibor qaratadi: 1. Boburning harbiy intizomi; 2. Boburning jazo uslublari. Muni La'l va Xayriddin Sultonov talqinlarida bu jihatdan uyg‘unlik bor: Bobur *“xalqqa nohaq zulm qiladigan, talonchilik bilan shug‘ullanadigan navkarlarga, askarboshilarga”* shafqatsiz munosabatda bo‘lgan. Bobur bunyodkor, xalqsevar, taraqqiyparvar shaxs bo‘lgan. Muni La'l shu nuqtada tarixiy haqiqatga tayanadi. U Bobur Hind diyorini egallagandan keyingi voqealar tasvirini keltiradi: Bobur yiqqan boyliklarini beklari, navkarlari, qarindoshlariga ulashgan, Kobuldagi odamlarga kumush tangalar jo‘natgan, oila a'zolarini ham qimmatbaho toshlar bilan siylagan. X.Sultonov tasvirlari yuqoridagi lavhalarga mutanosib. Bobur Hind mulkini zabt etar ekan, u yerda xuddi o‘z yurtidagidek to‘kin-sochin hayotni bunyod etishga intilgan va bunga erishgan ham. Shoh-shoirning Dehlidagi janglari, harbiy yurishlari uning sarkardalik mahoratini namoyon etgan. Ushbu janglar tasvirini keltirar ekan, Muni La'l Boburning harbiy taktikalar qo‘llashdagi mohirligini faktlar bilan tasdiqlaydi: uning forslardan o‘rganganlari asosida 700 ta qurol tortilgan aravalar yordamida jonli qal'a tayyorlaganini, artilleriya va otliq bo‘linmalardan samarali foydalanganini aytib o‘tadi.²¹ X.Sultonov esa “Panipat jangi” nomi bilan tarixga kirgan bu jangda Boburning sarkardalik mahoratini e’tirof etadi. Tarix sahifalarida Boburning shafqatsiz, shuhratparast bo‘lganligi haqida qaydlar oz. Bunda Edvards va Muni La'l tasvirlari o‘rtasida bir necha o‘xshashliklar mavjud. Birinchi o‘xshashlik – Boburning shafqatsizligi uning ona tomondan bobosi Chingizxonga bog‘lanishi. Ikkinchisi, jazo usullarini qo‘llashdagi uyg‘unlik: Bobur qonunni buzganlarning kallasidan piramida yasaydi (Muni La'l), uning jazo usullari ba'zan shafqatsiz bo‘lgan (Edvards). Ammo shuni ta’kidlash joizki, adiblar nazdida Bobur hech qachon begunoh insonlar qonini to‘kmagan. U faqatgina o‘rnatilgan qonun-qoidalarni buzgan va ularga bo‘ysunishni istamaganlarni qattiq jazolagan. Bobur hayotining so‘nggi lahzalari ham qiyoslanayotgan asarlarda realistik tasvirlangan.

Dissertatsiyaning **“XX asr inglizabon va o‘zbek nasrida Bobur ruhiyati ifodasi”** deb nomlangan uchinchi bobi ikki fasldan tarkib topgan. Bobning *“Qomusiy ijodkor Bobur shaxsi talqinida o‘ziga xosliklar”* tarzida nomlangan dastlabki faslida Boburning sinovlarga to‘la hayoti davomida boshidan kechirgan voqealardagi ruhiy holati tasviri keltirilgan o‘rinlar o‘zaro qiyoslangan. Darhaqiqat, Bobur 12 yoshga to‘lganda otasining halokatli o‘limi haqida eshitadi. Ta’kidlash kerakki, ingliz adibasi F.Stil Sharq mentalitetiga xos jihatlarni yaxshi anglagan. U shunday mudhish xabarni eshitgandagi Boburning ruhan tushkun holati tasvirini keltiradiki, kitobxonga buni xuddi o‘zbek yozuvchisi yozgandek ta’sir ko‘rsatadi. Boburning yoniga kelib to‘xtagan xabarchining qo‘lidagi *“ko‘k ro‘molcha”* buni asoslab turadi. Chunki *“ko‘k ro‘molcha”* Sharqda o‘lim xabarini ifodalaydi. Binobarin, ingliz va o‘zbek yozuvchilari tomonidan Boburning

²¹Muni Lal. Babar: life and times. – New Delhi: Vikas Publishing House PVT LTD, 1977. – P. 82.

tashvishli onlari aks etgan hayotiy voqelik tasviri juda uyg'un. Agar F.A.Stil buni sharqona mazmun bilan boyitgan bo'lsa, P.Qodirov ham tarixiy haqiqatlarga tayanadi. Bobur hayotda bobosi Amir Temurdan ibrat olishga intilgan. Muni La'l tasvirlariga ko'ra, Bobur o'zining podshoh bo'lishini tasodifiy emas, balki Temur asos solgan davlatni saqlab qolish uchun tanlangan, deb hisoblagan. Shu bois hech qachon umidsizlikka tushmagan, buni taqdir bitigi deb hisoblagan. X.Sultonov esa Bobur qalbi, ruhiyatida kechgan iliq va rohatbaxsh lahzalarni ta'sirchan aks ettira olgan. Ya'ni uning sohibqiron bilan g'oyibona muloqotda bo'lishi, o'gitlaridan tasalli axtarishi, u bilan bog'liq tarixiy ma'lumotni qalb daftariga yozishi, uning faoliyatini o'zi uchun mezon hisoblashi singarilarda ko'zga tashlanadi.

